

## "Buxoroyo'Igranit" DK

---



Zokirov Orzibek Orifovich  
Qabul kunlari: Dushanba, Payshanba

Romiton tumani, Gazli shaxar, O'qituvchilar ko'chasi, 12-uy, 201002

**Mo'ljal:** Qoqishtuvonsavdo do'koni.

**Transport:**

Avtobus:222

(0 593) 960-75-80

(0 365) 224-50-63

[buxoroyulgranit@uzavtoyul.uz](mailto:buxoroyulgranit@uzavtoyul.uz)

---

### "Buxoroyo'Igranit" davlat korxonasining funksional vazifalari

---

- yo'l qurilish ishlariga yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalar qo'llash orqali raqobatbardosh, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va yetkazib berish;
- o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni o'zaro tuzilgan shartnomalar asosida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, tashkilotlarga va fuqarolarga realizatsiya qilish;
- ishlab chikarishga ilg'or tajriba, yangi texnika, texnologiya va samarali yo'l-qurilish materiallari, mehnatni tashkil etish va boshqarish sohasidagi ilg'or tajribalarni tatbiq etish;
- ishlab chiqarishni texnikaviy va ashyoviy ta'minoti, aniq ish bajaruvchini tanlash, ish xaqi to'lashni o'rnatilgan tartib va usullarni qo'llash, ishchi xizmatchilarni ijtimoiy himoyalash va o'z-o'zini boshqarish masalalarini mustaqil hal qilish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini bajarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- tabiiy tosh va noruda mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish;
- tabiiy toshdan pardoqlangan materiallar va me'morchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish;
- eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni boshqa respublikalarga eksport qilish;
- granit va marmar toshlari, plitalari va granit va marmar mahsulotlari ishlab

chiqarish va sotish;

- karer xo'jaligini rivojlantirish;
- avtotransport va temir yo'l transporti xizmatlarini ko'rsatish;
- pudrat shartnomalari bo'yicha boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga ish bajarish, xizmatlar ko'rsatish;
- korxonada ishlab chiqarish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mehnat jamoalarining ijtimoiy xayotini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish;
- ulgurji, chakana savdo;
- xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish;
- turli sohalarda xaq evaziga xizmat ko'rsatish;
- foyda olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish.

[Nizomni yuklab olish \(pdf, 240 kb\)](#)